AXBOROT MUHITI OMILLARINING SHAXS QADRIYATLAR TIZIMI TRANSFORMATSIYASIGA TA’SIRI

Isakova Muazam Tulkinovna
Psixologiya fanlar doktori, professor

Annotatsiya: Ushbu maqolada axborot xurujlari va zamonaviy raqamli texnologiyalarning xotira samaradorligini susaytirishi hamda tafakkur jarayonlariga salbiy ta’siri o‘tkazilgan empirik tahlillar orqali tasdiqlandi.

Kalit so‘zlari: transformatsiya, andozalar, qadriyat tizimlari, ijtimoiy ustanovkalar, televideniya, internet, ommaviy madaniyat.

Аннотация: В данной статье посредством проведенного эмпирического анализа подтверждено, что информационные атаки и современные цифровые технологии снижают эффективность памяти и негативно влияют на мыслительные процессы.

Ключевые слова: трансформация, стандарты, системы ценностей, социальные установки, телевидение, интернет, массовая культура

Abstract: This article confirms through empirical analysis that information attacks and modern digital technologies reduce memory efficiency and negatively impact thinking processes.

Keywords: transformation, standards, value systems, social attitudes, television, internet, mass culture

Jahonda kechayotgan shiddatli va global transformatsiyalashuv jarayonlari natijasida, bugungi zamonaviy dunyo hamda XXI asr sivilizatsiyasi mutlaqo yangi - axborotlashgan jamiyat bosqichiga qadam qo‘ydi va axborot huruji, axborot-psixologik urushi qiyofasida o‘zini namoyon etmoqda. Bugungi kunda axborot makoni shunchaki ma’lumot almashish vositasi emas, balki shaxs ongi va xulq-atvoriga maqsadli ta’sir ko‘rsatish maydoniga aylandi. Har bir shaxs tashqi olamdan kelayotgan axborot oqimini o‘zining individual-psixologik xususiyatlari, qadriyatlar tizimi va kognitiv imkoniyatlaridan kelib chiqgan holda qabul qiladi. Shaxs tomonidan axborotning qabul qilinishi uning bilish jarayonlari hamda psixologik ehtiyojlariga bevosita bog‘liqdir. Mazkur jarayonda axborotning mazmun-mohiyati shaxsning dunyoqarashini shakllantirishda, uning ijtimoiy ustanovkalarini o‘zgartirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

O‘tgan yuz yillikning yakuni va XXI asrning dastlabki davridan boshlab ko‘plab tadqiqotchilar antropogen omillarning insonga salbiy ta’siri bilan bog‘liq muammolarga tobora katta qiziqish bildirmoqda. Hozirgi global sharoitda insoniyatni o‘rab turgan axborot muhitining sifat jihatidan o‘zgarishi, uning shiddatli sur’atlar bilan taraqqiy etishi va turli-tuman shakllarga kirishi yaqqol kuzatilmoqda. Axborot makoni shaxs tomonidan his qilinadigan axborot oqimlari,

axborot infratuzilmalari, har xil ko‘rinishdagi kommunikativ hamkorlik hamda axborot bosimidan shakllanadi. Binobarin, ijtimoiy muhit axborot yordamida insonga xulq-atvor andozalari, qadriyat tizimlari, ijtimoiy ustanovkalar va stereotiplarni uzatuvchi o‘ziga xos mexanizm bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur normalar, qadriyat va ustanovkalar esa dinamik omillar majmuasi sifatida subyektning hayotiy faoliyatiga hamda uning psixologik salomatligiga bevosita yoki bilvosita ta’sir ko‘rsatadi. Zamonaviy sharoitda insonning kundalik faoliyati raqamli ma’lumotlar va texnologiyalarga to‘liq qaram bo‘lib bormoqda. Psixologlarning e’tirof etishicha, an’anaviy “aqlli odam” fenomeni bosqichma-bosqich “axborotlashgan inson” qiyofasiga transformatsiya bo‘lmoqda [20, 21].

Klassik yondashuvlarda axborot xavfsizligi tushunchasi asosan texnik tizimlarni va ma’lumotlar bazasini tashqi xurujlardan muhofaza qilish nuqtayi nazardan talqin qilingan. Biroq bugungi kunda mazkur masalaning boshqa — inson omili bilan bog‘liq psixologik jihatlari faol tadqiq etilmoqda. Agarda ushbu muammoning markaziga bevosita shaxs obyekti qo‘yilsa, virtual makonda inson daxlsizligini ta’minlash uning subyektiv va tashkiliy darajadagi barqarorligini, raqamli xavf-xatarlardan himoyalanganlik holatini ifodalashi namoyon bo‘ladi [4, 37, 39].

Hozirgi davrda axborot muhitining inson ruhiyatiga ko‘rsatayotgan bosimi shiddatli tus olib, axborot-psixologik xavfsizlik muammosini yanada aktuallashtirdi. Bu jarayonning chuqurlashuviga zamin yaratayotgan omillardan biri — inson ongi va ong osti tuzilmalariga, uning mafkuraviy hamda emotsional olamiga ta’sir o‘tkazish, subyektning ruhiy holatini manipulyatsiya qilishga qaratilgan mutlaqo yangi usul va uslublarning paydo bo‘layotganidir [5, 35, 40].

Taniqli mutafakkir Erix Fromm o‘tgan asrning o‘rtalaridayoq kelajakda televizion makon insoniyat jamiyati uchun kimyoviy moddalar yoki narkotik vositalarga qaraganda ancha yuqori ijtimoiy va psixologik xavf tug‘dirishi mumkinligini bashorat qilgan edi [31]. Hozirda televideniya, internet, ommaviy madaniyat axborotini tashuvchi ko‘plab boshqa qurilmalar bu bashoratning naqadar haqiqat ekanligini isbotlamoqda.

Zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim belgilaridan biri sifatida axborot oqimlarining jadallashuvi va kommunikativ makonning keskin kengayishi namoyon bo‘lmoqda. Psixologik nuqtayi nazardan, axborot muhiti shaxsning idroki, tafakkuri, emotsional holati va xulq-atvor strategiyalariga bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsatadigan kuchli ijtimoiy omil sifatida namoyon bo‘lib kelmoqda. Mazkur muhit orqali shaxs ijtimoiy tajribani egallaydi, mavjud me’yor va qadriyatlarni bosqichma-bosqich o‘zlashtiradi hamda o‘ziga xos ijtimoiy rollarni anglay boshlaydi. Xorijiy ilmiy adabiyotlarda axborot muhiti ko‘pincha *media environment*, *information ecology* yoki *digital environment* tushunchalari orqali izohlanadi. Masalan, N. Postman axborot muhitini shaxs tafakkurini shakllantiruvchi madaniy mexanizm sifatida talqin qilgan bo‘lsa, M. McLuhan uni “inson sezgi tizimining kengaytirilgan shakli” sifatida baholaydi [47].

Axborot muhitining xulq-atvorga ta’siri asosan ijtimoiy o‘rganish va taqlid mexanizmlari orqali namoyon bo‘ladi. Ommaviy axborot vositalari va raqamli

platformalarda takroran namoyish etiladigan xatti-harakat modellari shaxs ongida normativ namunalar sifatida mustahkamlanib boradi. Natijada shaxs mazkur modellarga mos ravishda o‘z xulqini ongli yoki ongsiz tarzda qayta tashkil etadi. Ayniqsa, virtual muhitda ijtimoiy ma’qullash (layk, izoh, obuna) mexanizmlarining mavjudligi xulq-atvorni boshqaruvchi tashqi mustahkamlovchi omil sifatida ishlaydi. Bu holat shaxsning ijtimoiy tasdiqqa bo‘lgan ehtiyojini kuchaytirib, ba’zan moslashuvchan bo‘lmagan xatti-harakat shakllarining rivojlanishiga ham zamin yaratadi.

Axborot muhiti shaxsning xulq-atvorini shakllantirish va unga ta’sir qilishda markaziy rol o‘ynaydi. Xulq-atvor, shaxsning o‘zaro munosabatlari, ijtimoiy faoliyati va qaror qabul qilish jarayonidagi odatiy reaktsiyalardir. Zamonaviy axborot muhiti esa bu jarayonlarga bir necha yo‘nalishlarda ta’sir ko‘rsatadi:

- Impulsivlikning oshishi: Doimiy ravishda tezkor axborot oqimlari (ixtiyoriy yangiliklar, ijtimoiy tarmoq postlari, qisqa videolar) shaxsni tezkor, yuzaki qarorlar qabul qilishga majbur qiladi. Bu holat xulq-atvorda impulsivlashuvga olib keladi, ya’ni shaxs hissiy impulslar asosida qaror qabul qiladi, oqibatlarni chuqur tahlil qilmaydi va o‘z harakatlarini oldindan rejalashtira olmaydi.

- Agressiv xatti-harakatlar: Axborot muhitida salbiy, qarama-qarshi yoki manipulyativ kontentning ko‘pligi shaxsning agressiv reaksiyalarini kuchaytirishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, uzoq muddatli media ta’siri shaxsning dunyoqarashini deformatsiyalab, kichik qarshiliklarga keskin va agressiv javob berishga moyil qiladi.

- Ijtimoiy passivlik va befarqlik: Virtual muloqot va ijtimoiy tarmoqlarda faol bo‘lish real hayotdagi ijtimoiy aloqalarni cheklaydi. S. Turkle (2011) tadqiqotlariga ko‘ra, shaxslar yuzma-yuz muloqotda empatiya va muloqot madaniyatini yetarlicha namoyon eta olmaydi. Natijada, shaxs ijtimoiy faoliyatdan cheklanadi, jamoaviy mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishi sustlashadi va passiv xulq-atvor rivojlanadi.

- Qoidalarni buzishga moyillik: Axborot muhitidagi tezkor va cheklovsiz ma’lumot oqimi shaxsning intizomiy va ijtimoiy qoidalarni e’tiborsiz qoldirishiga olib keladi.

- Qaror qabul qilish va tanqidiy fikrlashga ta’sir: Axborot ortiqligi shaxsning xulq-atvorini qaror qabul qilishdagi yuzaki va stereotipli strategiyalar orqali belgilaydi. Shaxs murakkab vaziyatlarda o‘z fikrini tez va soddalashtirilgan yo‘l bilan shakllantiradi, bu esa shaxsning barqaror va ongli xulq-atvorini susaytiradi.

- Xulq-atvorning ijtimoiy integratsiyasiga ta’siri**:** Axborot muhiti shaxsning jamiyat bilan integratsiyasini ham o‘zgartiradi. Agar shaxs virtual makon bilan haddan tashqari shug‘ullansa, u real hayotdagi jamiyat me’yorlariga moslashuv qobiliyatini yo‘qotishi mumkin. Natijada ijtimoiy faoliyat, do‘stlik, hamkorlik va jamoaviy qarorlar bilan bog‘liq xulq-atvor zaiflashadi.

G‘arb psixologiyasida ushbu hodisa E. Toffler, D. Levitin, J. Sweller kabi olimlar tomonidan chuqur o‘rganilgan. Ularning ilmiy qarashlariga ko‘ra, axborot ortiqligi shaxsning kognitiv resurslarini haddan tashqari band qilib, diqqatni jamlash, axborotni mantiqiy tahlil qilish va muhim jihatlarni ajratib olish qobiliyatini

sezilarli darajada pasaytiradi. Bunday holatda inson murakkab tahliliy fikrlashdan ko‘ra, soddalashtirilgan, tayyor stereotiplarga asoslangan qarorlar qabul qilishga moyil bo‘lib qoladi. D. Levitin tomonidan AQShda 1 200 nafar respondent ishtirokida o‘tkazilgan empirik tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, yuqori axborot yuklamasi sharoitida insonlar qaror qabul qilish jarayonida tezkorlikni aniqlikdan ustun qo‘yadi [45, 60]. Bu esa xulq-atvorda yuzakilik, impulsivlik va tanqidiy fikrlashning susayishi bilan namoyon bo‘ladi.

Axborot muhitining shaxs xulq-atvoriga ta’siri faqat kognitiv jarayonlar bilan cheklanib qolmaydi, balki emotsional-irodaviy sohada ham chuqur o‘zgarishlarni yuzaga keltiradi. Xususan, salbiy, agressiv yoki manipulyativ mazmundagi axborot kontentining ustunligi shaxsning emotsional barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Mazkur ilmiy tadqiqot doirasida Farg‘ona viloyati Furqat tumani maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi tasarrufidagi 1-sonli davlat ixtisoslashtirilgan umumta’lim maktabi hamda 8-sonli umumta’lim maktabida tahsil olayotgan jami 320 nafar o‘quvchi respondent sifatida jalb etildi.

Tanlanma shakllantirilishida ta’lim muassasalari o‘rtasida muvozanatni saqlashga alohida e’tibor qaratildi. Natijada ishtirokchilarning 47,5 foizi (152 nafar) 1-sonli ixtisoslashtirilgan maktab, 52,5 foizi (168 nafar) esa 8-sonli umumta’lim maktabi o‘quvchilaridan iborat bo‘ldi.

Sinaluvchilarning jins jihatdan tarkibi tahlil qilinganda, o‘g‘il bolalar 45 foizni (146 nafar), qiz bolalar esa 55 foizni (174 nafar) tashkil etishi aniqlandi. Bunday nisbat tadqiqot natijalarini jinsiy farqlanish (gender differensiasiyasi) nuqtayi nazaridan qiyosiy baholash imkonini beradi.

O‘quvchilarning sinflar kesimidagi taqsimoti o‘smirlik davrining turli rivojlanish bosqichlarini qamrab olgan holda shakllantirildi. Jumladan, tadqiqotda 8-sinf o‘quvchilari 24,4 foizni, 10-sinf o‘quvchilari esa 25 foizni tashkil etdi. Shuningdek, 7-sinf va 11-sinf o‘quvchilari teng ulushda, ya’ni 15 foizdan qatnashgan bo‘lsa, 9-sinf o‘quvchilari ulushi 20,6 foizni tashkil qildi. Mazkur taqsimot o‘smirlik davrining turli psixologik bosqichlarida namoyon bo‘ladigan individual-psixologik xususiyatlarni qiyosiy tahlil qilish imkonini yaratadi.

Yosh ko‘rsatkichlari bo‘yicha tahlil shuni ko‘rsatdiki, sinaluvchilarning asosiy qismi 15 yoshli (35 foiz) hamda 16 yoshli (28,1 foiz) o‘smirlardan iborat. Shu bilan birga, 14 yoshli ishtirokchilar 22,5 foizni, 17 yoshli o‘quvchilar esa 14,4 foizni tashkil etadi. Bunday yosh diapazonining mavjudligi o‘smirlik davriga xos bo‘lgan psixik rivojlanish dinamikasini hamda yoshga bog‘liq psixologik o‘zgarishlarni kengroq qamrovda tahlil qilish imkonini beradi.

Mazkur tadqiqot ishida axborot xavfsizligining psixologik jihatlarini chuqurroq o‘rganish maqsadida eksperimental tadqiqot dizaynidan foydalanildi. Tadqiqot jarayoni ikki turdagi guruh, nazorat va eksperimental guruhlar asosida tashkil etildi. Bunday yondashuv o‘rganilayotgan muammoning sabab-oqibat bog‘liqligini aniqlash, shuningdek, ishlab chiqilgan psixologik ta’sir choralarining samaradorligini baholash imkonini berdi. Tadqiqotda ishtirok etgan respondentlar internetdan foydalanish vaqti asosida ikki guruhga ajratildi. Nazorat guruhida

ishtirokchilar odatiy sharoitda kuzatildi va ular bilan maxsus psixologik ta’sir ishlari olib borilmadi.

Eksperimental guruhda esa maxsus ishlab chiqilgan “Raqamli muhitda muvozanatli hayot” va “Oilada axborot xavfsizligi madaniyatini shakllantirish” nomli korreksion dastur asosida tizimli psixologik ishlar amalga oshirildi. Korreksion dastur axborot-psixologik immunitetni shakllantirish, tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, kognitiv barqarorlikni mustahkamlash hamda manipulyativ axborotlarga nisbatan ongli munosabatni qaror toptirishga qaratildi. Ushbu dastur doirasida treninglar, suhbatlar, psixologik mashqlar va muammoli vaziyatlarni tahlil qilish usullaridan foydalanildi. Eksperimental guruh bilan olib borilgan ishlar ma’lum vaqt oralig‘ida bosqichma-bosqich tashkil etildi va har bir bosqichda ishtirokchilarning psixologik holati hamda axborotga nisbatan munosabatidagi o‘zgarishlar muntazam ravishda kuzatib borildi. Tadqiqot jarayonida dinamik monitoring olib borilib, olingan natijalar dastlabki ko‘rsatkichlar bilan qiyosiy tahlil qilindi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlashimiz mumkinki, o‘tkazilgan tadqiqot natijalari axborot xavfsizligi muammosini faqat texnik yoki huquqiy jihatdan emas, balki chuqur ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida tahlil qilish zarurligini ko‘rsatdi. Tadqiqot davomida olingan ilmiy xulosalar axborot xavfsizligining psixologik mexanizmlarini chuqurroq tushunishga, shuningdek, o‘smirlarning raqamli muhitdagi xulq-atvorini optimallashtirishga xizmat qiladi. Bu esa mazkur yo‘nalishda keyingi ilmiy izlanishlar uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Axborotlashtirish to‘g‘risida: 2003-yil 11-dekabrdagi 560-II-son (2018-yil 18-apreldagi O‘RQ-476-sonli Qonun tahririda) // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. – 1998 y. – № 1, 10-modda; 2002 y. – № 9, 165-modda.

2. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Kiberxavfsizlik to‘g‘risida: 2022-yil 15-apreldagi O‘RQ-764-son // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. – 2022 y. – 16-aprel, 03/22/764/0315-son.

Ахроров В.Ю. Sotsial psixologiya: O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2020.

3. Баева И.А., Баев Н.Н., Кондакова И.В. Личностные ресурсы сопротивляемости человека негативным воздействиям социальной среды //

4. Баратов Ш.Р. Shaxs psixologiyasi va axborot muhiti. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.

5. Бессонов И.А. Психология информационной безопасности. – М., 2021.